



O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING IQTISODIY-IJTIMOYIY SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSH RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Yuldoshova Yulduz

Qarshi davlat universiteti

ORCID: 0009-0002-6436-4834

yulduz.yuldoshova1991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik sanoatining iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tizimli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ushbu tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi o'rne, bandlik darajasiga ta'siri, hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirishdagi roli va tashqi savdo balans muvozanatiga qo'shayotgan hissi yoritilgan. Shuningdek, sohaning rivojlanish istiqbollari texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish, ekologik standartlarga moslashuv va xalqaro bozorga integratsiyalashuv kabi yo'nalishlar asosida tahlil qilinadi. Maqolada nazariy yondashuvlar va dolzarb statistik ma'lumotlarga tayangan holda to'qimachilik sanoatining transformatsion salohiyati asoslanadi va uni yanada takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, ijtimoiy samaradorlik, bandlik darajasi, klaster tizimi, eksport salohiyati, rivojlanish tendensiyalari, texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, mehnat bozori.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И СОЦИАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ И ТЕНДЕНЦИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОГО РАЗВИТИЯ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА

Юлдошова Юлдуз

Каршинский государственный университет

Аннотация. В статье системно анализируется социально-экономическое значение текстильной промышленности Узбекистана и современные тенденции её развития. Рассматриваются роль данной отрасли в формировании валового внутреннего продукта, её влияние на уровень занятости населения, стимулирование региональной экономической активности, вклад в формирование внешнеторгового баланса. Анализируются перспективы развития отрасли по таким направлениям, как технологическая модернизация, цифровизация, адаптация к экологическим стандартам и интеграция в международный рынок. В статье на основе теоретических подходов и современных статистических данных обосновывается трансформационный потенциал текстильной промышленности и даются практические рекомендации по её дальнейшему совершенствованию.

Ключевые слова: текстильная промышленность, социальная эффективность, уровень занятости, кластерная система, экспортный потенциал, тенденции развития, технологическая модернизация, цифровизация, устойчивое развитие, рынок труда.

ECONOMIC AND SOCIAL POTENTIAL AND TRENDS OF COMPETITIVE DEVELOPMENT OF THE TEXTILE INDUSTRY OF UZBEKISTAN

Yuldoshova Yulduz
Karshi State University

Abstract. *The article systematically analyzes the socio-economic significance of the textile industry of Uzbekistan and modern trends in its development. The role of this industry in the formation of the gross domestic product, its impact on the level of employment, stimulation of regional economic activity, contribution to the formation of the foreign trade balance are considered. The prospects for the development of the industry in such areas as technological modernization, digitalization, adaptation to environmental standards and integration into the international market are analyzed. Based on theoretical approaches and modern statistical data, the article substantiates the transformation potential of the textile industry and provides practical recommendations for its further improvement.*

Keywords: *textile industry, social efficiency, employment level, cluster system, export potential, development trends, technological modernization, digitalization, sustainable development, labor market.*

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot bosqichida to'qimachilik sanoati nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida, balki keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim tizimli omil sifatida e'tirof etilmoqda. Bu soha ko'p bosqichli ishlab chiqarish zanjiriga ega bo'lib, paxta yetishtirishdan tortib to tayyor kiyim-kechak mahsulotlarigacha bo'lgan murakkab texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur jihatlar to'qimachilik sanoatini boshqa sanoat tarmoqlaridan farqlantirib turadi va uni iqtisodiy strukturada yetakchi o'rinlardan biriga olib chiqadi.

To'qimachilik sohasi milliy sanoatning asosiy tarkibiy bo'g'ini bo'lib, xomashyo resurslarining chuqur qayta ishlanishi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish, logistika va xizmatlar sektorini faollashtirish, shuningdek, mamlakat eksport portfelining diversifikatsiyasiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ayni paytda u ko'plab yordamchi tarmoqlar – kimyo sanoati, mashinasozlik, qadoqlash, dizayn va marketing faoliyatlari bilan o'zaro integratsiyalashgan holda harakat qiladi.

Xususan, O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida to'qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishi bir qator ustuvor yo'nalishlar, jumladan, aholi bandligini oshirish, hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlash, sanoat infratuzilmasini kengaytirish, valyuta tushumini oshirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyada ishtirok etish kabi dolzarb vazifalarni bajarishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, chekka va iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududlarda to'qimachilik klasterlarini tashkil etish orqali mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbalarini yaratish imkoniyati vujudga kelmoqda. Shu bilan birga, tarmoqda eksportbop mahsulotlar ulushining ortishi mamlakatning tashqi savdo balansini muvozanatlashtirish va raqobatbardoshligini kuchaytirish imkonini bermoqda.

Adabiyotlar sharhi.

To'qimachilik sanoati ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiyotni strukturaviy o'zgartirishda, sanoatni diversifikatsiya qilishda va eksport salohiyatini oshirishda muhim strategik tarmoq sifatida e'tirof etiladi. Turli nazariy maktablar ushbu tarmoqning iqtisodiy-ijtimoiy funksiyalariga turlicha yondashadi. Iqtisodiy rivojlanishning klassik nazariyalariga ko'ra, ishlab chiqarishning mehnatga asoslangan tarmoqlari, jumladan to'qimachilik, sanoatlashtirishning boshlang'ich bosqichida turgan davlatlar uchun tez sur'atda iqtisodiy o'sish manbai bo'lib xizmat qiladi (Lewis, 1954; Kuznets, 1966). Xususan, Lewisning

“ikki sektorli iqtisodiyot modeli”da qayd etilishicha, mehnat ortig’i mavjud bo’lgan mamlakatlarda sanoatning mehnat talabchan tarmoqlarini rivojlantirish orqali ortiqcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mumkin.

Global qiymat zanjiri nazariyasining yetakchi vakillari Gereffi, Humphrey va Sturgeon (2005) fikriga ko’ra, to’qimachilik sanoati rivojlanayotgan davlatlar uchun xalqaro iqtisodiy integratsiyaga kirish bosqichidir. Bu modelda mamlakatlar xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo’lgan zanjirda o’z o’rnini mustahkamlab boradi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, “qayta ishlash darajasining chuqurlashtirilishi va dizayn, marketing kabi yuqori qiymatli bo’g’inlarga kirib borish orqali tarmoqdagi raqobatbardoshlik mustahkamlanadi”. O’zbekistonning to’qimachilik klasterlari orqali olib borayotgan islohotlari aynan ana shu yondashuvning milliy modelga moslashtirilgan ko’rinishidir.

Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik nazariyalari nuqtai nazaridan olganda, to’qimachilik sanoati keng qatlamlarni ish bilan ta’minlash, ayollar va yoshlar mehnatini iqtisodiy faol aylanmaga jalb etish, ijtimoiy infratuzilmani faollashtirish kabi ko’rsatkichlarda yuqori ijtimoiy samaradorlikka ega (Nordas, 2004; UNIDO, 2019). Nordasning tadqiqotida aytilishicha, ushbu soha ayniqsa kambag’allik darajasi yuqori bo’lgan hududlarda gender tenglikni rag’batlantirish orqali ijtimoiy inklyuziyaga xizmat qiladi. Bu jihat O’zbekiston kabi demografik jihatdan yosh aholiga ega davlatlarda yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy olimlar ham ushbu mavzuga o’z munosabatlarini bildirar ekanlar, to’qimachilik sanoatining mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tutgan o’rni kengayib borayotgani, ayniqsa hududiy klasterlar orqali qo’shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish segmentlari shakllanayotganligini alohida qayd etishadi (Saidov, 2019). Tarmoq nafaqat bandlik darajasini oshirmoqda, balki hududlarda ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish va logistika imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida ham ko’rilmoqda.

Shuningdek, Tursunov (2021) to’qimachilik tarmog’ining barqarorligi va global bozorga moslashuvchanligini saqlab qolish uchun texnologik yangilanish, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish va raqamli boshqaruv yondashuvlarining joriy etilishini zarur deb biladi. Uning fikricha, zamonaviy menejment tizimi bo’lmasdan to’qimachilikda innovatsion uzluksizlikka erishish qiyin.

Qayd etish joizki, mavjud ilmiy yondashuvlar tarmoqning ko’p qirrali funksiyasini namoyon etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun u iqtisodiy o’sish drayveri, ijtimoiy barqarorlik instrumenti va global qiymat zanjiriga kirish eshigi sifatida namoyon bo’ladi. Shu bois, O’zbekistonda to’qimachilik sanoatini faqat ishlab chiqarish sifati bilan emas, balki ijtimoiy inklyuzivlik va innovatsion menejment vositalari bilan uyg’un holda rivojlantirish muhim nazariy va amaliy vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola to’qimachilik sanoatining iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati va raqobatbardosh rivojlanish tendensiyalari haqidagi nazariy bilimlarga asoslangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, induksiya, deduksiyadan foydalangan holda ilmiy natijalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

To’qimachilik sanoati O’zbekiston iqtisodiyotida ko’p tarmoqli va strategik ahamiyatga ega bo’lgan tizimli sektor hisoblanadi. U milliy iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalashuvi, sanoat mahsulotlarining qayta ishlash darajasini chuqurlashtirish, aholi bandligini oshirish va xalqaro savdo balansini muvozanatlashtirishda hal qiluvchi rol o’ynaydi. Ushbu tarmoqning iqtisodiy samaradorligi faqat ishlab chiqarish hajmlari bilan emas, balki uning yaratgan ijtimoiy infratuzilma, hududlararo iqtisodiy integratsiya va barqaror daromad manbalarini shakllantirishdagi funksiyasi orqali namoyon bo’ladi.

Ilmiy manbalarda to’qimachilik sanoati, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda, iqtisodiy modernizatsiyaning dastlabki bosqichida turgan, yuqori mehnat sig’imiga ega, qiymat

zanjirining keng spektrini o'z ichiga oluvchi tarmoq sifatida talqin etiladi (Gereffi et al., 2005). Tarmoqning ahamiyati shundaki, u paxtachilikdan boshlab to kalava-ip, to'qimachilik, tikuvchilik, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, brending, marketing va eksportgacha bo'lgan murakkab va ko'p bosqichli ishlab chiqarish siklini o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa unga yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatini beradi va u iqtisodiy o'sishning inklyuziv modelida asosiy lokomotivlardan biriga aylanadi.

Ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar-sanoat o'tish bosqichidagi davlatlar uchun to'qimachilik sanoati mavjud xomashyo (paxta tolasi) resurslarini chuqur qayta ishlash va o'ziga xos sanoat brendini shakllantirish orqali iqtisodiy suverenitetga erishish yo'lida muhim poydevor vazifasini bajaradi. Bu tarmoqning ijtimoiy ahamiyati esa, o'z navbatida, aholining iqtisodiy faolligidagi ishtirokini oshirish, ayniqsa ayollar va yoshlar bandligini rag'batlantirish, qishloq joylarda ish o'rinlari yaratish, migratsion bosimni kamaytirish va hududiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan to'qimachilik sanoati "mehnat orqali ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy harakatchanlikni uyg'unlashtiruvchi tarmoq" sifatida e'tirof etiladi.

Statistik ma'lumotlar tahlili to'qimachilik sanoatini O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida strategik eksport yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. 2023-yil yakuniga ko'ra, mamlakat umumiy eksport hajmi \$19,5 milliard atrofida bo'lib, uning qariyb \$3 milliardini to'qimachilik mahsulotlari – jumladan, kalava-ip, gazlama, tayyor kiyim-kechak va uy-ro'zg'or tovarlari tashkil etdi (World Bank, 2024). Bu, eksport strukturasida ushbu tarmoqning 12-13 foiz atrofidagi salmog'ini bildiradi. Mazkur raqamlar faqat statistik ko'rsatkich bo'lib qolmay, balki iqtisodiy suverenitet va valyuta tushumlari barqarorligini ta'minlashda to'qimachilik tarmog'i tutgan o'rnini tasdiqlaydi.

Eksport bozorlarining geografik diversifikatsiyasi ham so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaymoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonning to'qimachilik mahsulotlari 55 dan ortiq mamlakatga yetkazib berilmoqda, ulardan asosiylari Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi davlatlari hisoblanadi. Bu esa, mamlakat to'qimachilik sohasining global qiymat zanjirlariga integratsiyalashayotganidan dalolat beradi. Gereffi (2005) tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashga ko'ra, to'qimachilik sanoati ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global ishlab chiqarish tizimiga kirishdagi ilk bosqich sifatida xizmat qiladi. Bu model O'zbekiston misolida ham o'z tasdig'ini topmoqda, chunki mahsulotlar faqat xomashyo emas, balki yarim tayyor va tayyor shaklda, eksportbop dizayn va sifat standartlariga muvofiq yetkazib berilmoqda.

Shuningdek, sohada qo'shilgan qiymat yaratish darajasi bosqichma-bosqich chuqurlashmoqda. O'zbekistonda kalava-ip eksportidan voz kechish yo'lida bosqichli strategiya amalga oshirilmoqda: mahalliy klasterlar ichida yarim tayyor gazlamalarni chuqur qayta ishlash va ularni tayyor kiyim-kechak mahsulotlariga aylantirish orqali eksportda yuqori narxli segmentlarga chiqish maqsad qilingan. Bu transformatsiya jarayoni nafaqat iqtisodiy, balki institutsional islohotlar bilan hamohang ravishda olib borilmoqda. Jumladan, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, xorijiy sertifikatlashtirish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali to'qimachilik eksportining raqobatbardoshligi oshirilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, to'qimachilik tarmog'i O'zbekistonning eksport portfeli ichida nafaqat yirik ulushga ega tarmoq, balki uzoq muddatli eksport strategiyasining tayanch bo'g'ini sifatida shakllanmoqda. U tashqi savdo muvozanatini ijobiy holatda saqlash, valyuta tushumlarini barqarorlashtirish, xalqaro bozorlarga mahalliy brendlarni olib chiqish va texnologik uzluksizlikni ta'minlashda ko'p funksiyali rol o'ynaydi.

To'qimachilik sanoatining ijtimoiy samaradorligi, ayniqsa, aholi bandligini ta'minlash, ayollar va yoshlarni mehnat bozoriga jalb qilish hamda hududiy tenglikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu tarmoq mehnatga nisbatan yuqori sig'imga ega bo'lib, mehnat taqsimotining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi zanjirli strukturasiga ega.

Mazkur sohada band bo'lganlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yilda O'zbekiston bo'yicha to'qimachilik sanoati klasterlari va ularning tarkibidagi ishlab chiqarish sub'yektlarida 600 000 nafardan ortiq ishchi faoliyat olib borgan, bu esa ushbu tarmoqni mamlakatda eng yirik ish beruvchi sektorlar qatoriga qo'shadi (World Bank, 2024).

To'qimachilik sohasi, ayniqsa, ayollar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytiruvchi va ularning iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytiruvchi platforma sifatida xizmat qilmoqda. Ayollar umumiy band xodimlarning 65-70 foizini tashkil etadi (UNIDO, 2022), bu esa gender tenglikni kuchaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va oila iqtisodiyotiga bevosita hissa qo'shish imkonini beradi. Ushbu holat Nordas (2004) tomonidan ilgari surilgan "genderga yo'naltirilgan to'qimachilik modeli" tushunchasiga to'liq mos keladi. Unga ko'ra, to'qimachilik sanoati – ayollar uchun o'zini iqtisodiy jihatdan namoyon qilish, moliyaviy mustaqillikka erishish va ijtimoiy maqomini oshirishda eng qulay tarmoqdir.

Yana bir muhim jihat, bu to'qimachilik tarmog'ining hududiy mehnat bozoriga ta'siridir. Respublikadagi 140 dan ortiq paxta-to'qimachilik klasterlari ichki mehnat migratsiyasi oqimini kamaytirish, qishloq joylarda doimiy daromad manbalarini yaratish va mahalliy infratuzilmani faollashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda (USDA, 2023). Ayniqsa Farg'ona vodiysi, Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi klasterlar ijtimoiy-iqtisodiy faollikni joylarda muvozanatli taqsimlashga xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiy inklyuzivlikni ta'minlovchi kuchli vosita sifatida tarmoqni yanada dolzarb qiladi.

To'qimachilik sanoatining ijtimoiy ta'siri nafaqat ish o'rinlari yaratish bilan cheklanmaydi. U shuningdek innovatsion texnik o'quv markazlarining tashkil etilishiga, kasbiy malaka va bilimlar tizimini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Mehnat resurslarini uzluksiz rivojlantirish orqali bu soha inson kapitalining o'sishiga strategik hissa qo'shmoqda.

Yuqorida qayd etilganlarda kelib chiqib, to'qimachilik sanoati O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida nafaqat ishlab chiqarish sektori, balki ijtimoiy barqarorlik va inson salohiyatini ochib beruvchi mexanizm sifatida muhim rol o'ynaydi deb aytishimiz mumkin. Ayniqsa, ayollar, yoshlar va qishloq aholisi uchun yaratilayotgan bandlik imkoniyatlari ushbu tarmoqni inklyuziv rivojlanishning tayanch ustunlaridan biriga aylantirmoqda.

So'nggi yillarda to'qimachilik sanoatining rivojlanish traektoriyasi uni an'anaviy ishlab chiqarish tarmog'idan texnologik va institutsional jihatdan yangilangan, eksportbop va innovatsion sanoatga aylantirishga qaratilgan bosqichli islohotlar bilan xarakterlanadi. Ushbu rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari sifatida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulotni yuqori qayta ishlash darajasiga olib chiqish, ishlab chiqarishning raqamli transformatsiyasi va ekologik standartlarga moslashuvni keltirish mumkin.

Avvalo, to'qimachilik sanoatining tuzilma va tashkiliy modeli o'zgarib bormoqda. Ilgarilari soha asosan individual ishlab chiqarish birliklariga tayangan bo'lsa, hozirgi bosqichda kooperatsiyalashgan va ixtisoslashgan ishlab chiqarish zanjirlari asosida harakat qilmoqda. Bu esa klasterlashgan yondashuvni yanada takomillashtirish, funksional aloqalarni kuchaytirish va ishlab chiqarishdan tashqari xizmat ko'rsatish sektorlarini ham jalb qilish orqali tarmoq integratsiyasini ta'minlayapti. Ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, bu transformatsiya Marshallning "industrial aglomeratsiya" nazariyasiga mos tushadi, ya'ni o'zaro yaqin joylashgan va funktsional jihatdan bog'langan korxonalar o'zaro sinergetik afzallik hosil qiladi.

Bundan tashqari, to'qimachilik sanoati bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligiga moslashish orqali moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini shakllantirmoqda. Ayni paytda ishlab chiqarish hajmidan ko'ra, uning mijozga yo'naltirilganligi, dizayn innovatsiyasi, yetkazib berish tezligi va barqarorlik mezonlariga javob berishi global raqobatda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ko'plab to'qimachilik korxonalari mijozga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini, tezkor moda (fast fashion) modellarini va kichik hajmli, lekin yuqori marjaga ega mahsulot liniyalarini ishlab chiqish yo'liga o'tayotgani kuzatilmoqda. Bu holat

menejmentda “moslashuvchan ishlab chiqarish tizimlari” (Flexible Manufacturing Systems – FMS) konsepsiyasining amaliy ifodasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, to‘qimachilik sanoatining rivojlanishida intellektual resurslardan foydalanish darajasi ham ortib bormoqda. Ilgari asosan texnik va operatsion salohiyat bilan cheklangan bo‘lsa, endilikda dizayn, moda prognozlash, brend menejmenti, texnik tekstil yo‘nalishlarida kasbiy bilim va innovatsion g‘oyalar ustuvor rol o‘ynamoqda. Bu jarayonda ilmiy-tadqiqot institutlari, kasb-hunar markazlari va xususiy sektor o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik (“triple helix” modeli) tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat mahsulot sifatini, balki mehnat resurslarining bilimga asoslangan kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo‘nalish, to‘qimachilik tarmog‘ida xalqaro sertifikatlash, atrof-muhit mezonlariga mos ishlab chiqarish va ijtimoiy mas‘uliyatli boshqaruv prinsiplari asosida harakat qilishga intilishdir. Raqobat sharoitida ekologik talablar, ishchilarning mehnat sharoitlari, ishlab chiqarishning shaffofligi kabi omillar mahsulotning bozorga kirish imkoniyatlariga bevosita ta‘sir o‘tkazmoqda. Shu bois, tarmoq korxonalari o‘z strategiyalarini ISO, OEKO-TEX, GOTS kabi xalqaro standartlarga moslashtirmoqda. Bu tendensiya to‘qimachilik sanoatini “yashil sanoat” (green industry) kontsepsiyasiga muvofiq shakllanishiga olib kelmoqda.

Ushbu rivojlanish vektorlarini tahlil qilgan holda aytish mumkinki, to‘qimachilik sanoati O‘zbekistonning sanoat modernizatsiyasi jarayonida transformatsion platforma vazifasini bajarmoqda. Bu soha orqali mamlakat ishlab chiqarishni eksportga yo‘naltirilgan, texnologik asoslangan va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydigan modelga o‘tishni amalga oshirmoqda. Kelgusida tarmoqning institutsional barqarorligini mustahkamlash, ilmiy-innovatsion ko‘makni kengaytirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish uning strategik raqobatbardoshligini yanada oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim strategik tarmog‘i bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarish salohiyatining oshishiga, balki bandlik darajasining barqarorlashuvi, hududiy iqtisodiy faollikning kuchayishi va eksport diversifikatsiyasining kengayishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Tarmoqning ko‘p bosqichli ishlab chiqarish zanjiri, yuqori mehnat sig‘imi va qayta ishlash darajasining chuqurlashuvi uni milliy iqtisodiyotda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydigan muhim tayanchlardan biriga aylantirgan.

Ilmiy-nazariy yondashuvlar, mavjud statistik ma‘lumotlar hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida quyidagi asosiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

- to‘qimachilik sanoati O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti, tashqi savdo va bandlik siyosatida asosiy drayver sohalardan biri sifatida namoyon bo‘lib, bu tarmoq orqali iqtisodiy inklyuzivlikka erishish imkoniyatlari kuchaymoqda;

- tarmoqdagi klasterlashtirish jarayonlari, ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi, hamda raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi orqali sanoat strukturasida sifat jihatidan yangi paradigma shakllanmoqda;

- raqobatbardoshlikni oshirishda chuqur qayta ishlov, dizayn va brending, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish va inson kapitaliga asoslangan boshqaruv usullari asosiy omillardan bo‘lib bormoqda;

- to‘qimachilik sanoatida gender tenglik, yoshlar bandligi va hududiy iqtisodiy integratsiyani ta‘minlash salohiyati mavjud bo‘lib, bu tarmoqni ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning strategik vositasiga aylantirmoqda.

Adabiyotlar/Ўмепамыпа/Reference:

Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. (2005). The governance of global value chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78–104.

Kuznets, S. (1966). *Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread*. Yale University Press.

Lewis, W. A. (1954). *Economic Development with Unlimited Supplies of Labour*. *The Manchester School*, 22(2), 139–191.

Nordas H.K. (2004). The global textile and clothing industry post the Agreement on Textiles and Clothing. *WTO Discussion Paper No. 5*. World Trade Organization. Retrieved from https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/discussion_papers5_e.pdf.

Saidov M. (2019). To'qimachilik sanoatining hududiy rivojlanishdagi o'rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 45–49.

Tursunov D. (2021). O'zbekistonda to'qimachilik tarmog'ini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari. *Sanoat iqtisodiyoti jurnali*, (2), 35–41.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2019). *Industrial Development Report 2020: Industrializing in the digital age*. United Nations Industrial Development Organization. Retrieved from <https://www.unido.org/resources-publications-flagship-publications-industrial-development-report-series>.

United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2022). *Gender and industrial development: Empowering women in the textile and garment industry*. UNIDO Publication. Retrieved from <https://www.unido.org/resources/publications>.

USDA Foreign Agricultural Service. (2023). *Cotton and Products Update – Uzbekistan*. Retrieved from https://apps.fas.usda.gov/newgainapi/api/Report/DownloadReportByFileName?fileName=Cotton+and+Products+Update_Tashkent_UZ2023-0002.pdf.

World Bank. (2024, May 27). *Weaving a new future in Uzbekistan's cotton sector*. Retrieved from <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2025/05/27/weaving-a-new-future-in-uzbekistan-s-cotton-sector>.